

O'ZBEKISTON SHAHARLARIDA TA'LIM MUASSASALARINI YARATISHNING ZAMONAVIY XORIJ TAJRIBALARIDAN FOYDALANISH TARTIBI VA YO'NALISHLARI

Musayeva Zumrad Muxitdin qizi

(senior lecture of Tashkent University
of Architecture and Civil Engineering)
zmusayeva1993@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada xorijiy mamlakatlarning maktabgacha ta'lim muassasalarini loyihalash va shaharsozlikda joylashtirish borasidagi ilg'or tajribalari tahlil qilinadi. Jumladan, Daniya, Finlandiya, Yaponiya, Germaniya, Fransiya va Niderlandiyaning ekologik, modulli va ijtimoiy yo'naltirilgan yondashuvlari o'rganiladi. Ushbu tajribalar asosida O'zbekiston sharoitida MTM infratuzilmasini takomillashtirish yo'llari, mavjud muammolar va ularning yechimlari ko'rib chiqiladi. Xususan, urbanizatsiya bosimini kamaytirish, o'rinlar taqchilligini bartaraf etish, ekologik me'yorlarga rioya qilish va zamonaviy texnologiyalarni joriy etish bo'yicha amaliy takliflar beriladi.

Kalit so'zlar: maktabgacha ta'lim, shaharsozlik, xorijiy tajriba, ekologik arxitektura, modulli qurilish, aqlli shahar, urbanizatsiya, energiya samaradorligi, inklyuziv muhit, bolalar bog'chasi dizayni.

Abstract. The article analyzes the advanced international experiences in the design and urban placement of preschool educational institutions. It examines the ecological, modular, and socially inclusive approaches implemented in countries such as Denmark, Finland, Japan, Germany, France, and the Netherlands. Based on these cases, the article discusses potential applications for improving preschool infrastructure in Uzbekistan. Practical solutions are proposed to address key challenges such as urbanization pressure, shortage of preschool seats, adherence to ecological standards, and the integration of modern technologies in preschool architecture.

Keywords. preschool education, urban planning, international experience, ecological architecture, modular construction, smart city, urbanization, energy efficiency, inclusive environment, kindergarten design

Kirish. Bugungi urbanizatsiya va demografik o'sish sharoitida maktabgacha ta'lim muassasalarining (MTM) funksional va ekologik jihatdan zamonaviy

talablar asosida tashkil etilishi dolzarb masalaga aylanmoqda. Xalqaro tajribalar shuni ko'rsatmoqdaki, bolalar bog'chalari faqat ta'lim beruvchi joy emas, balki bolalarning ijtimoiylashuvi, psixofiziologik rivoji va ijodiy salohiyatini ro'yobga chiqaruvchi kompleks muhit bo'lishi lozim. Xususan, Daniya, Finlandiya, Yaponiya, Germaniya va boshqa davlatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, MTMLar ekologik barqarorlik, modulli qurilish, raqamli boshqaruv va ijtimoiy inklyuzivlik tamoyillari asosida barpo etilmoqda. Mazkur maqolada xorijiy amaliyot asosida O'zbekistondagi shaharsozlik va maktabgacha ta'lim muassasalari infratuzilmasini takomillashtirish imkoniyatlari tahlil qilinadi.

Asosiy qism. Bugungi kunda dunyo miqyosida maktabgacha ta'lim tizimini takomillashtirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, bolalar bog'chalari va maktablari nafaqat ta'lim beruvchi maskanlar, balki bolalarning ijtimoiylashuvi, jismoniy rivojlanishi va kreativ qobiliyatlarini shakllantirishga xizmat qiladigan muhit bo'lishi lozim. Shu sababli, xorijiy tajribada bolalar bog'chalari nafaqat ta'lim muassasalari, balki madaniy va ijodiy markazlar bilan uyg'un holda rivojlantirilmoqda.

Ilg'or xorij tajribalarining asosiy yo'nalishlari

Ochiq makon konsepsiyasi. Bolalarga erkin harakatlanish, tanlov qilish va mustaqil o'rganish imkonini beruvchi loyihalar amalga oshirilmoqda. Masalan, Daniyaning Forfatterhuset bolalar bog'chasida yosh guruhlar an'anaviy tartibda bo'linmagan, bolalar erkin harakatlanishlari va o'yin zonalaridan foydalana olishlari mumkin (CEBRA Architects, 2014).

Ko'p funksiyali maskanlar. Bolalar bog'chalari kutubxona, teatr, ustaxona va laboratoriyalar bilan birgalikda tashkil etilmoqda. Masalan, Ikast-Brande xalqaro maktabi (Daniya) bolalar bog'chasidan boshlab o'rta ta'limgacha bo'lgan bosqichlarni o'z ichiga olgan majmua sifatida ishlab chiqilgan (C.F. Moller Architects, 2013).

Modulli qurilish. Bolalar bog'chalari modulli tizim asosida qurilib, tez va qulay o'zgartiriladigan va kengaytirish imkoniyatiga ega bo'lgan binolarga aylantirilmoqda. Bu usul Yevropa mamlakatlarida keng qo'llanilmoqda, masalan, Sloveniya arxitektori Yure Kotnik tomonidan yuk konteynerlaridan foydalanib loyihalashtirilgan bog'chalar (Kotnik, 2015).

Barqaror arxitektura tamoyillari. Qurilishda ekologik toza materiallardan foydalanish, energiya samaradorligini oshirish va qayta tiklanadigan manbalardan foydalangan holda bog'chalar barpo etilmoqda. Daniyaning "Quyoshli uy" loyihasi ekologik jihatdan samarali va tabiiy yorug'likdan maksimal foydalanuvchi ta'lim muassasasining yorqin namunasidir (Christensen & Co. Architects, 2010).

1. O'zbekiston sharoitida xorijiy tajribadan foydalanish imkoniyatlari

Mamlakatimizda bolalar ta'lim muassasalarining zamonaviy talablar asosida tashkil etilishi muhim ahamiyat kasb etmoqda. Xorij tajribasi quyidagi yo'nalishlarda qo'llanilishi mumkin:

Bog'cha va boshlang'ich maktab majmualarini shakllantirish – O'zbekistonda yangi qurilayotgan hududlarda bog'cha va boshlang'ich maktablar birgalikda loyihalashtirilishi mumkin.

Ko'p funksiyali komplekslar – Bolalar bog'chalari kutubxona, sport markazlari va san'at maktablari bilan integratsiya qilinish mumkin (Кудрявцева С.П., 2020).

Tez quriladigan modulli tizimlar – Qishloq hududlarida demografik o'zgarishlarni hisobga olgan holda, oson ko'chiriladigan modulli bog'chalar qurilishi mumkin.

Ekologik qurilish va energiya samaradorligi – Quyosh panellari, yomg'ir suvidan foydalanish tizimlari va tabiiy shamollatish usullari keng qo'llanilishi lozim (Christensen & Co. Architects, 2010).

Mentalitet va iqlim sharoitlariga mos yondashuv – Xorij tajribasidagi ochiq makon konsepsiyasini mahalliy pedagogik tamoyillar bilan uyg'unlashtirish kerak. Ushbu yondashuvlar ta'lim sifatini oshirish, bolalarga qulay va xavfsiz muhit yaratish hamda shaharsozlikni zamonaviylashtirishga xizmat qiladi. O'zbekiston sharoitida xorij tajribasini moslashtirish mahalliy qurilish normalari, pedagogik yondashuvlar va iqlim sharoitlarini hisobga olgan holda amalga oshirilishi lozim.

1. Urbanizatsiya va infratuzilmaga yuklamaning ortishi

Fransiya tajribasida maktabgacha ta'lim tashkilotlari mahalla va mikrorayon tamoyili asosida, ya'ni aholiga eng yaqin hududlarda joylashtiriladi. Bu yondashuv aholining xizmatlarga tez va oson yetib borishini ta'minlab, urbanizatsiya bosimini kamaytiradi.

Niderlandiyada MTTLar infratuzilmaga integratsiyalashgan holda, ko'pincha transport tugunlari yoki ijtimoiy xizmatlar yaqinida joylashtiriladi. Bu zamonaviy transport tizimi bilan bog'lanib, tumanlararo bosimni pasaytiradi.

Yaponiyada esa joy tanqisligi sharoitida vertikal (ko'p qavatli) bog'chalar qurish tajribasi mavjud. Bu, ayniqsa, zich urbanizatsiyalashgan Toshkent va Farg'ona vodiysi shaharlarida qo'llash mumkin bo'lgan amaliy yechimdir.

2. O'rinlar taqchilligi

Finlandiyada modulli bog'chalar qurish orqali qisqa muddatda bolalar uchun joylar yaratish imkoniyati mavjud. Bu konstruktsiyalar tez yig'iladi va ehtiyojga qarab kengaytiriladi.

Germaniyada mobil (ko'chma) bog'chalar amaliyoti bor. Bunday muassasalar, ayniqsa, yangi massivlar yoki vaqtincha o'rin tanqisligi mavjud hududlarda samarali bo'ladi.

Daniyada esa ijtimoiy xizmatlar bilan integratsiyalashgan, “har bir bola uchun joy” prinsipiga asoslangan tizim mavjud. Bu orqali kamida 95% bolalar maktabgacha ta’limga qamrab olingan.

3. Ekologik standartlarning past darajasi

Germaniyada GIS texnologiyalar asosida ta’lim muassasalari ekologik xavfsizlik zonalarida rejalashtiriladi. Bu shovqin, ifloslanish va sanoat zonalaridan uzoqda joylashuvni ta’minlaydi. Finlandiyada bog‘chalarda doimiy ekologik monitoring amalga oshiriladi, bu esa havo sifati, yoritish va issiqlik me’yorlarini nazorat qilishga yordam beradi. Yaponiya tabiiy havalandirish, quyosh yoritishi va materiallar orqali ekologik muvozanatni ta’minlashda ilg’or. Bu amaliyot ekologik talablar zaif bo‘lgan Toshkent va sanoat zonalarini uchun dolzarbdir.

4. Ekodizayn va zamonaviy texnologiyalarning yo‘qligi

Niderlandiyada yashil tomlar, yomg‘ir suvini yig‘ish tizimlari va quyosh panellari orqali ekologik dizayn rivojlangan. Bu nafaqat energiya tejamkorligini ta’minlaydi, balki MTM atrofidagi mikroiklimni ham yaxshilaydi. Finlandiyada tabiiy yoritish va energiyani tejaydigan havoni tozalovchi tizimlar qo‘llaniladi. Shu orqali bog‘chalar ichki mikroiklimi salomatlikka mos bo‘ladi. Daniyada energiya samaradorligiga qaratilgan dizayn talablarining qat’iyligi orqali issiqlik sarfini 40% gacha kamaytirish mumkin.

5. Mavjudlik va xavfsizlik muammolari

Fransiyada MTMlar “piyoda 10 daqiqa masofa” prinsipiga asoslanadi. Bu xavfsizlik va qulaylikni oshiradi. Yaponiyada MTMlar turar joy binolariga birlashtirib quriladi. Bu ota-onalarga yaqinlik, xavfsizlik va ijtimoiy nazoratni kuchaytiradi. Germaniyada yirik avtomobil yo‘llaridan uzoqda joylashtirish, xavfsizlikni oshirishda muhim ahamiyatga ega.

6. Ko‘kalamzorlashtirishdagi kamchiliklar

Finlandiyada MTM atrofidagi yashil maydonlar “tabiat terapiyasi” tamoyiliga asoslanadi. Ular bolalar psixologik va jismoniy rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Germaniyada yashil devorlar, landshaft dizayni va ekologik materiallar orqali 20 foizlik yashil hudud me’yorlari doimiy nazoratda bo‘ladi. Daniyada esa bu ko‘rsatkich yanada yuqori: bog‘cha hududining 30-40 foizi yashil zonaga ajratiladi.

7. Eskirgan binolar

Yaponiyada eski binolarni saqlab qolgan holda zamonaviylashtirish (modifikatsiya qilish) amaliyoti mavjud. Bu tarixiy arxitektura va ekologik talablarga mos keladi. Germaniyada rekonstruksiya va energiya samaradorligini oshirishga doir dasturlar orqali 1970-80-yillarda qurilgan MTMlar zamonaviy talabga keltirilmoqda. Fransiyada “pedagogik arxitektura” konsepsiyasi asosida

eski bog'chalar rekonstruksiya qilinadi, bu nafaqat xavfsizlik, balki didaktik muhitni ham yaxshilaydi.

Xulosa. Xorijiy mamlakatlar tajribasi shuni anglatadiki, maktabgacha ta'lim muassasalarining samarali faoliyati nafaqat arxitektura va qurilish yechimlariga, balki shaharsozlik siyosatining umumiy strategiyasiga ham bevosita bog'liq. Modulli va energiya tejankor qurilish, yashil hududlarni kengaytirish, ijtimoiy qulayliklarni ta'minlash va ta'limni infratuzilma bilan integratsiya qilish orqali MTMlarning sifati sezilarli darajada oshadi. O'zbekiston sharoitida ushbu ilg'or yondashuvlarni mahalliy iqlim, madaniyat va shaharsozlik me'yorlariga moslashtirib qo'llash, mavjud muammolar – o'rinlar taqchilligi, ekologik talablarning sustligi, binolarning eskirganligi va xavfsizlik masalalariga samarali yechim topishga xizmat qiladi. Shu jihatdan, xorijiy tajriba tahliliga asoslangan konseptual yondashuvlar, zamonaviy maktabgacha ta'lim tizimini barpo etishda muhim metodologik asos bo'lib xizmat qilishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Adilov Z. K. Z.M. Musaeva Theme: Analysis of Experience in Design and Reconstruction of Educational Institutions in Different Foreign Countries. – 2023.
2. Otabekovna, N. D., Z. M. S. Kizi, and M. Z. M. Kizi. "Use of tree plants in the organization of Landscape design in the regions of the city of Termiz, Surkhondaryo region." Web of Scholars: Multidimensional Research Journal 1.6: 359-363.
3. Adilov Z. K. et al. Organizing healthy landscapes in densely populated urban areas //E3S Web of Conferences. – EDP Sciences, 2023. – T. 403. – C. 06008.
4. Инновационные проекты детских садов для районов Крайнего Севера и Дальнего Востока, Республика Саха (Якутия), 2014
5. Алиева, Э.Ф., Радионова О.Р. Проектирование пространства и архитектуры современных дошкольных образовательных учреждений Германии
6. Кудрявцева Светлана Петровна Профессор, заведующая кафедры «Архитектура и градостроительство» Астраханский государственный архитектурно-строительный университет, Астрахань, Россия